

ISLOM DINIGA OID TERMINLAR VA ULARNING TURKIY VARIANTLARI

Boymirzayev Muhammad

*DTPI Filologiya va tillarni o‘qitish:o‘zbek tili
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Bozorova Zuhra

*DTPI Filologiya va tillarni o‘qitish:o‘zbek tili
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy terminlarning turkiysi haqida so‘z boradi. Shuningdek, turkiy so‘zlarning etimologiyasiga ham nazar tashlaymiz. Namoz, ro‘za, hamd, hidoyat, sajda kabi diniy terminlarning asosiy o‘zlashish manbasini aniqlaymiz.

Kalit so‘zlar: termin, islomiy termin, turkiy termin, etimologiya, ro‘za, namoz, asliy manba.

Abstract: This article discusses the Turkish origin of Islamic terms. We will also look at the etymology of Turkish words. It will be identified the main sources of borrowing of religious terms such as prayer, fasting, praise, guidance, and prostration.

Keywords: term, Islamic term, Turkish term, etymology, fasting, prayer, original source.

Ma’lumki, islomdan oldin ajdodlarimizda ro‘za tutish albatta bor bo‘lgan. Ro‘za va namoz so‘zining turkiysi yo‘qmi? Buddizmda, moniylik dinida bu ibodat borligi ma’lum. Ro‘za ma’nosida baçağ so‘zini, «ro‘za tutmoq» ma’nosida baça-(baçamoq) fe’lini ko‘ramiz. Balki bu so‘z bog‘lamoq ma’nosidagi ba- fe’liga borib taqalishi mumkin.

Namoz ma’nosida esa turkiy Qur’on tarjimalarida va «Devonu lug‘atit-turk»da yükünç, namoz o‘qimoq ma’nosida yükün- (yukunmak) fe’li uchraydi. Bu so‘z «tiz cho‘kmoq, ta’zim qilmoq» ma’nosidagi yükün- fe’lidan kelgan.¹ Islomning besh farzidan biri bo‘lgan namoz so‘zi ham forscha bo‘lib, arablar aslida salât (ko‘pligi salavât) deydi. Demak bu so‘zning ham bizga arabchasi emas, forschasi kirib kelgan ekan. Bu ham o‘zida bir qancha tarixiy jarayonlarni aks ettirib turibdi. Bu esa alohida mavzu. Biz so‘zning etimologiyasiga kirsak, aslida islomdan oldin ham tilimiz tarixida ayni negizdan boshqa so‘z bor ekanini ko‘ramiz.

Namaç/namazning xoh sanskrit, xoh pahlaviy tilida «hurmat bilan egilish, ta’zim qilish» ma’nosini bor edi. Sanskrit tilidan bir necha buddizmga oid termin dunyo tillariga

¹ Rahmatullayev Sh., O‘zbek tilining etimologik lug‘ati

tarqalib ketgan. Bular orasida aynan shu so‘z ham bor. Chunki buddizm e’tiqodida kaftlarni birlashtirib ta’zim qilish keng yoyilgan. Haligacha Hind tomonlarda shu uslubda salomlashilar ekan «Namaste» deyilishi ma’lum. Aynan namaste so‘zi ham namaz/namaç bilan bir o‘zakdan kelgan. Buddizmga e’tiqod qilgan turkiylar orasida esa o‘ziga xos «buddizm basmalasi» bor edi: namo bud, namo darm, namo sang. Ma’nosi: buddaga ta’zim, ta’limotga ta’zim, jamoatga ta’zim. Buddizm muhitidagi turkiy asarlarda ana shunday so‘z boshini ko‘ramiz. Bu yerdagi namo so‘zi ham namoz so‘zi bilan o‘zakdosh. Demak islomdan oldin ajdodlarimiz uchun bu so‘z begona bo‘lmanan ekan. Namoz so‘zi haqida shevashunos kanali quyidagi ma’lumotni berib o‘tdi:

Musulmonlarning kunda besh mahal o‘qiydigan ibodatining ismi namozdir. Ushbu so‘z bizga forscha orqali kirib kelgan. Ikki xil ma’nosi bor.

1. Hurmat va ta’zim ma’nosida yerga egilish

2. «Islomiy ibodat shakli»

Bu so‘z o‘rta forschada ayni ma’noni bildiruvchi namaç yoki namâz so‘zidan kelib chiqqandir. Avesto tilida nəmah - ibodat, so‘zi bilan ayni negizdandir. Sanskritchada esa námas-/namaskar bilan aynidir. Namoz bilan bog‘liq so‘zlar: namozxon namozgoh namozxona benamoz, namozsiz namozlik, joynamoz, namozshomgul, namozgar (namozi digar) odatda peshin namozidan keyingi namozlar uchun qo‘llaniladi)

Undan tashqari Namozbek, Namozboy, Namozxon kabi atoqli ismlarda ham uchraydi.

Shuningdek, islomiy terminlarning turkiychasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, Kabir=ulug‘, Afuv=keçürgän, gunoh= yazuq, shayton= yükünç, sajda= yükünç, qiyomat= jaza kuni, jam kuni, song kün; qiyom= adaqın tur, duo=alqış, oyat= belgü, ajal=atalmış vaqt, sur= borğu, nafs=öz, nabiy= savçı kabi muqobil variantlari borligini ham bilishimiz zarur.²

Hijriy-qamariy yil hisobida to‘qqizinchi oy shunday nomlanadi. Ramazon- bu oy davomida musulmonlar ro‘za tutadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu so‘z qadim tarixga ega. Ramazon dastlab juda issiq kunlarga to‘g‘ri kelgani uchun unga ramazon – juda issiq, kuydiradigan issiq deb nom bergenlar. So‘zning ana shu ma’nosidan kelib chiqib, bu oyda ro‘za tutgan odamning gunohlari kuyib, yo‘q bo‘ladi degan fikr ham aytildi. Ro‘za-forscha ro‘z, ya’ni kun so‘ziga -a qo‘sishchasini qo‘sib hosil qilingan. Ildizi so‘g‘dchaga borib taqaladi. Ro‘za tutgan kishi sahardan quyosh botgunga qadar, demak, butun kun davomida yeb-ichmaydi. Bu so‘z arab tilida as-savm, as-siyam deyiladi. Uning lug‘aviy ma’nosini biror narsadan o‘zini mutlaqo tiyib turishdir.³

Ro‘za so‘zi Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi mamlakatlar tillarida ham ishlatiladi. U rus tiliga uraza shaklida

² Rahmatullayev Sh., O‘zbek tilining etimologik lug‘ati

³ .https://t.me/oriftolib

kirgan. Saharlik-arabcha sahar so‘ziga o‘zbekcha -lik qo‘sishimchasini qo‘sib yasalgan. Tong otmasdan, ro‘za tutish vaqtin boshlangunga qadar yeyiladigan ovqat va shunga belgilangan vaqtni anglatadi. Saharlik arab tilida suhur deyiladi. U sahar so‘zi bilan o‘zakdosh.Iftorlik bu so‘z arabcha ro‘za tutishni to‘xtatdi ma’nosidagi fatara fe’lidan yasalgan. Asliyatda ro‘za tutishni to‘xtatish, nonushta qilish ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tilida ro‘za kunlari shom paytida o‘tkaziladigan ro‘zani ochish, og‘iz ochish marosimini, og‘iz ochib ovqatlanishni, mana shu paytda beriladigan ziyofat, mehmondorchilikni anglatadi.

Ro‘za ochish jarayonini so‘zga -lik qo‘sishimchasini qo‘sib iftorlik deb atash ham keng tarqalgan.Tarovih- arabcha taravihu – tarviha so‘zidan, o‘zbek tiliga tovush o‘zgarishiga uchragan holda o‘tgan. Asliyatda dam olish, hordiq onlari ma’nosini anglatadi. Ibodat ma’nosida esa asliyatda ham, o‘zbek tilida ham xufton namozidan keyin o‘qiladigan sunnat namozni anglatadi. To‘rt rakat o‘qib, ortidan dam olingani uchun bu namoz tarovih deb nomlangan.

Qadr kechasi-ramazon oyidagi fazilatli, ming oydan afzal kecha. Arab tilidagi laylatul qadr iborasi o‘zbekchada belgilash kechasi, miqdor kechasi ma’nosini anglatadi. Qadr kechasi o‘zbek tilida laylatulqadr shaklida ham ishlatiladi. Fitr - ramazon oyi ro‘zasidan keyin, shukronalik uchun beriladigan sadaqa. U iftor so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lib, ro‘za tutish tugashini, og‘zi ochiqlikni bildiradi. Uning ehson, hadya ma’nosi ham bor.Namoz – yukunch. Bu so‘zga ilk bor «Qisasi Rabg‘uziy»da duch kelgan edim. Keyin boshqa manbalarda, jumladan, «Devonu lug‘atit turk»da uchratdim.⁴

Musulmonlar kuniga besh mahal bajaradigan ibodat bugungi tilimizda namoz deyiladi. Namoz forschanan olingan, asliyatda ham ayni shu mazmunda. Arabchasi – salot.

Islom dini turkiy qavmlar yashagan hududlarga kirib kelganida, xususan, VII-VIII asrlarda turkiy til juda quvvatli edi. U yangi tushunchalarga tezda ot qo‘yib olardi. Namoz bilan ham shunday bo‘ldi. Uni yukunch deb atadilar. «Devonu lug‘atit turk»da yukunch namoz ma’nosida sharhlangan va u bilan bog‘liq misollar bir necha o‘rinlarda keltirilgan:

Qul Tangrika yukundi – banda Tangri taologa ibodat qildi.

Tangrika yukunch yukundi – Tangri taologa yukundi, namoz o‘qidi.

O‘l yukunch etti – u namoz o‘qidi.⁵

Yukunch yukundi iborasi bosh egdi, bo‘yin sundi ma’nolarida ham ishlatilgan. Masalan, «O‘l bekga yukunch yukundi» jumlesi u bekka bosh egdi ma’nosida. Bu yerda ibodat mazmuni yo‘q. Yukunmoq so‘zining ibodat qilmoq ma’nosi XV asrdayoq

⁴ https://t.me/etimologiya_burchagi

⁵ Tuychiyeva O. Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute o‘qituvchisi «Lotin tili tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyati» nomli maqola, FTAI jild: 03, nashr: 09, Noyabr 2022, B. 96

yo‘qolib ulgurgan. Chunki Navoiy asarlarida ham Yukunmoq egilmoq, hurmat yuzasidan ta’zim qilmoq ma’nolarida keladi.

Yaratgan TANGRI oti bilan boshlayman.

Har bir ishning va so‘zning boshi «bismilloh» bo‘lganidek so‘zni tangri so‘zi bilan boshlaylik. O‘zbek tilining izohli lug‘atida «Olloh, Xudo, Parvardigor» deb ochiqlanar ekan kelib chiqishi mo‘g‘ul tilidagi «tenger» so‘zidan ekanligiga ishorat berilgan. Holbuki bu so‘z sof turkiy so‘z. Tilimizdagi asosiy so‘zlardan biri mo‘g‘ulchadan kirib kelishi haqiqatga mos kelmaydi. Bu so‘zning tilimiz tarixidagi asl ma’nosini osmon degani. Buni ko‘kturk matnlaridagi so‘zning birlamchi ma’nosidan bilib olsak bo‘ladi. (Tengri teg tengridä bolmiş türk bilgä qağan). Xo‘sish, qanday qilib osmon ma’nosidagi so‘z yaratgan, iloh anglamiga kelib qoldi ekan? Buning ortida uzundan-uzun tarixiy o‘tmish bor. Ibtidoiy davr insoni qarasa qor, yomg‘ir, chaqmoq, momaqaldiroq kabilalar osmonidan kelmoqda. Quyosh chiqib botar, qorong‘u bo‘lib oy-u yulduzlar chaqnaydi. Natijada osmon hammadan kuchli bir zotning makoni degan tushuncha uyg‘onadi. Shu sababli dunyo tillarida osmon ma’nosidagi turli so‘zlar «tangri» yoki «tangrining makoni» anglamiga ham kela boshlaydi. Demak tangri so‘zi avvalo «osmon», keyichalik esa «yaratuvchi, iloh» ma’nosiga ega bo‘lgan. Shu bois ham turkiy xalqlarda ko‘ktangri tushunchasi yuzaga kelgan va «tangri» ning osmon ma’nosini unutilgan. Oqibatda endi osmon ma’nosida boshqa so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilgan. Bu vazifani esa ko‘k so‘zi o‘z zimmasiga olgan. Ko‘kda yaratuvchi bir tangri borligi e‘tiqodidan hozirgacha yetib kelgan ba’zi an'analar, tushuncha va xatti-harakatlarning ildizi ham tangri so‘zining mana shu tarixiy sayridan. Yana ham yaratgan Tangri eng to‘g‘risini bilguvchi zotdir!

Muxtasar aytganda, islomiy terminlarni nutqimizda qo‘llayotganimizda uning asliy turkcha variantlari ham borligini unutmasligimiz lozim. Maqolaning maqsadi esa sizga turkiycha dinga oid terminlar ham mavjudligini, biroq bu so‘zlar tilimizdan foydalanilmayotganligini eslatish edi. Tilimizning sofligiga putur yetkazmaslik uchun ushbu so‘zlardan keng miqyosda foydalanishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Sh., O‘zbektilining etimologik lug‘ati, Toshkent: Universitet, 2000, B. 7-8
2. Tuychiyeva O. Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyat institute o‘qituvchisi «Lotin tili tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyati» nomli maqola, FTAI jild: 03, nashr: 09, Noyabr 2022, B. 96
3. Manlio Cortelazzo «Il vocabolario Etimologico», Bologna: Zanichelli, 1979
4. Q. Dusmuratov, O‘zbek epistolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyot ta’moyillari, “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 2, ISSUE 2, 2024.
5. <https://t.me/oriftolib>
6. https://t.me/etimologiya_burchagi